


2025-yil 16-oktabr

“O'zkimyosanoat” AJ Hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasida faol ishtirok etmoqda




Joriy yilning 16-17-oktyabr kunlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahridagi "Oq qush" majmuasida Hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasi o‘tkazilmoqda. Ushbu muhim tadbir sanoat sohasidagi yirik tarmoq korxonalari va mahalliy tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida samarali hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, yangi investitsiya va loyihalarni rejalashtirishga qaratilgan. Yarmarkaning asosiy maqsadlari — respublikada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar haqida keng qamrovli axborot berish, tarmoqlararo kooperatsiyani rivojlantirish, yangi shartnomalar imzolash va mahalliyashtirish bo‘yicha kelishuvlarga erishishdir. Shuningdek, yarmarka import o‘rnini bosuvchi

mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirish, mamlakat sanoatini raqobatbardoshlik jihatdan yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.



“O‘zkimyosanoat” AJ va tarmoq korxonalari ham yarmarkada o‘z mahsulotlari, innovatsion texnologiyalari va investitsiya loyihalari bilan ishtirok etmoqda. Jamiyat hududiy tarmoqlararo aloqalarni mustahkamlash, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish va mahalliyashtirish yo‘lida muhim qadamlarni amalga oshirmoqda.



Yarmarka davomida tabiiy va mineral resurslarni chuqur qayta ishlash, neft-kimyo mahsulotlari, qurilish materiallari, mebelsozlik, elektr-energetika va elektrotexnika sanoati sohalaridagi korxonalar o'rtasida hamkorlik aloqalari mustahkamlanadi. Shuningdek, kichik va o'rta biznes subyektlari uchun yangi imkoniyatlar yaratilishi, ularning sanoatga integratsiyalanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Umuman olganda, mazkur yarmarka mamlakatning sanoat salohiyatini oshirishda muhim omil bo'lib, hududlar iqtisodiyotini yanada rivojlantirishga imkon yaratadi.

"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati

source:

"O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkiyosanoat-aj-hududiy-tarmoqlararo-sanoat-yarmarkasida-f>